



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(5)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 240 sahifa,
16-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassisi: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimi z: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari	10
<i>Fazliddin Abdunabiyeovich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni	28
<i>O'rinovali Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ilhombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida)	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов)	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ	95
Мансурова Гульмира Рафазловна	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики.....	101
Рауфова Озода	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oilal–maktab hamkorligi mexanizmlari	105
Choriyeva Dildora Ismat qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida	109
Tangriyev Abdulkarim Tovashevich	
O'qish savodxonligi darslarida matn bilan ishlash orqali o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasi.....	114
Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi	
Raqamli transformatsiya sharoitida STEAM ta'limi orqali talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish	120
Kozimova Mehriniso Akbarali qizi	
Oliy ta'limda kvest texnologiyasi yordamida fizika fanining murakkab tushunchalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish metodikasi	125
O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi	129
Sharipov Nodir Botir o'g'li	
Management of Medical Emergencies in Outpatient Dental Clinics	133
Adurazzoqov Kamoliddin, Umarov Maruf, Buzrukhoda Javohir	
Psixologik farovonlikning asosiy komponentlari, ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy baholash usullari	138
Aliyev Samariddin Murotali o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	142
Boymurodova Sadoqat Istam qizi	
O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi	146
Gadoymurodova Kamola Sunnatulloyevna	
Oilada bola tarbiyasining ahamiyati va uning shaxs kamolotiga ta'siri	151
Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Oilimova Mushtariy Xaydarali qizi	
Art-pedagogika vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida estetik dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	154
Gulboyev Akbar Tuxtyayevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy tadbirlar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish	158
Homidov Husniddin Kupaysinovich, Yusupova Gulzor Yunusjon qizi, Norbekova Sevinch Musurmon qizi	
Bone-Grafting Materials in Oral Surgery: Classification, Biological Properties, and Clinical Application.....	161
Jumaqulova Mashhura Alishevovna, Buzrukhoda Javohir Davronovich	
Mediatsiya va o'qib tushunish kompetensiyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik	166
Karimova Dilyoraxon Raximjon qizi	
Using STEM Technologies to Foster Rational Thinking in the Dentistry	169
Khonimqulov Javlon, Burkhonova Zarafruz	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini montessori metodikasi vositasida til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish usullari modeli.....	173
Mahbuba Yusupova Rustam qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tayanch kompetensiyalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish metodikasining samaradorligi.....	177
Nasimova N. Q.	
Analysis of Scanning Techniques Used in Orthodontic Dentistry.....	182
Nasrullayev Javlonbek Tal'atovich, Rahimberdiyev Rustam Abdunosirovich	
Zamonaviylik - ta'lim konsepsiyasida asosiy mezon sifatida	187
Ochilova Gulnoza Odilovna	



O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi	191
<i>Qahhorova Sojida Bahodir qizi</i>	
Diqqat va xotira jarayonlarida raqamli texnologiyalarning roli	196
<i>Salomova Nargiza Sattorovna</i>	
Talabalarda kasbiy refleksiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning empirik tahlili	200
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Gimnastikachi qizlarda egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantirish jarayonida shikastlanishlarning oldini olish	205
<i>Sultanova Musharafxon Xudoyqul qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish	210
<i>Sayfedinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va yo'nalishlari	216
<i>Uralova Nurxon Maxadovna</i>	
Naqshbandiya qadriyatlarini bo'lg'usi o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni	220
<i>Xalmuxamedova Maxbuba Aslanovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari	223
<i>Xo'jamberdiyeva Maftuna Norqobilovna, Sanaqulova Sevinch Baxtiyor qizi</i>	
Developing Logical Thinking via the Use of STEM Technology	226
<i>Yarmuhammedov Nabijon Navruzovich, Burkhonova Zarafruz</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati	229
<i>Yo'ldoshboyeva Zulfiya Ravshan qizi, Jumayev Abdilxakim Turdiyevich</i>	
Значение предмета физического воспитания и спортивной метрологии в физическом воспитании молодежи	233
<i>Маматкулов Равшанжон Солижонович</i>	
Аксиологические аспекты диалога культур в романе Сухбата Афлатуни "Рай Земной"	237
<i>Чернова Татьяна Алексеевна, Худойназаров Сардорбек</i>	



O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Qahhorova Sojida Bahodir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich, 3/23-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida maqollar, topishmoqlar, ertaklar hamda tez aytishlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni o'rganildi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida tashkil etilgan darslarning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutq boyligini oshirish, matn mazmunini anglash hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdagi samaradorligi yoritib berildi. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va milliy qadriyatlarni singdirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, xalq og'zaki ijodi, maqol, topishmoq, ertak, tez aytish, boshlang'ich ta'lim, o'qish kompetensiyasi, milliy qadriyatlar.

Abstract: This article explores the pedagogical and methodological foundations of using oral folk literature in reading literacy lessons. The study examines the role of proverbs, riddles, fairy tales, and tongue twisters in developing the reading competence of primary school students. Particular attention is given to the effectiveness of lessons based on oral folk literature in fostering independent thinking, enriching vocabulary, enhancing text comprehension skills, and developing communicative competencies. The findings indicate that the effective integration of oral folk literature into the educational process increases students' interest in reading and contributes to the transmission of national values.

Key words: reading literacy, oral folk literature, proverbs, riddles, fairy tales, tongue twisters, primary education, reading competence, national values.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы использования образцов устного народного творчества на уроках читательской грамотности. В ходе исследования изучена роль пословиц, загадок, сказок и скороговорок в развитии читательской компетентности учащихся начальных классов. Особое внимание уделено эффективности уроков, организованных на основе устного народного творчества, в формировании самостоятельного мышления учащихся, обогащении словарного запаса, развитии навыков понимания текста и коммуникативных компетенций. Результаты исследования показали, что использование образцов народного творчества способствует повышению интереса к чтению и усвоению национальных ценностей.

Ключевые слова: читательская грамотность, устное народное творчество, пословицы, загадки, сказки, скороговорки, начальное образование, читательская компетентность, национальные ценности.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'qish savodxonligi nafaqat matnni o'qish va tushunish, balki undagi mazmunni tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda uni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish muhim metodik vositalardan biri sanaladi. Chunki xalq og'zaki ijodi o'zida xalqning ma'naviy qadriyatlari, axloqiy qarashlari, milliy tafakkuri va tarbiyaviy tajribasini mujassamlashtirgan boy manba hisoblanadi.

Maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertaklar va rivoyatlar o'quvchilarning nutq boyligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda badiiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish darslarning qiziqarli va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bunday metodik yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning matn ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlod qalbiga milliy ruh va ma'naviy fazilatlarini singdirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilarda o'qish kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni hamda ulardan foydalanishning samarali metodlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning nutqiy, kommunikativ va mantiqiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko'plab metodist olimlar tomonidan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotning nazariy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi.

Xususan, K.D. Ushinskiy o'zining pedagogik qarashlarida xalq ijodiyotini bolalar tarbiyasi va nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholagan. Olimning fikricha, xalq ertaklari, maqollar va topishmoqlar bolalarning tafakkurini o'stirib, ona tiliga muhabbat uyg'otadi. Ushinskiy ta'lim jarayonida xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish bolaning ruhiy va ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'zbek pedagogik tafakkurida ham xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va xalqona pand-nasihatlarning o'rni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Olimning qarashlariga ko'ra, bolalar tarbiyasida xalq maqollari va hikmatli so'zlar axloqiy sifatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha ilmiy izlanish olib borgan S. Matchonov o'qish darslarida matn ustida ishlash metodlarini keng tahlil qilgan. Olim o'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirishda badiiy va xalqona matnlarning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tadi. Uning ilmiy qarashlarida matnni ongli o'qish, mazmunni tahlil qilish va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy metodik vazifa sifatida yoritilgan.

Shuningdek, Q. Abdullayeva hamda T. G'afforovalarning ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'qish darslarini tashkil etish metodikasi keng yoritilgan^[1]. Ularning ishlarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol metodlardan foydalanish zarurligi asoslangan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarini rolli o'yinlar, savol-javob va ijodiy topshiriqlar asosida o'rganish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishi qayd etilgan.

N. Bikbayeva o'z tadqiqotlarida boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Olimaning ilmiy qarashlariga ko'ra, ta'lim jarayonida qiziqarli va hayotiy materiallardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchilarni faol fikrlashga undovchi samarali vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish masalasi pedagogik va metodik jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, ularni aynan o'qish savodxonligi darslari bilan integratsiyalashgan holda qo'llash metodikasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Ayniqsa, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida xalq og'zaki ijodining o'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ochib berish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda interfaol ta'lim texnologiyalari tashkil etdi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy tahlil, taqqoslash, suhbat va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklari hamda metodik qo'llanmalar tahlil qilinib, ularda xalq og'zaki ijodi namunalarining berilish holati o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va psixologik imkoniyatlari hisobga olindi. Xususan, maqollar ustida ishlash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va so'z boyligini rivojlantirish, topishmoqlar yordamida tafakkurni faollashtirish hamda ertaklarni tahlil qilish orqali obrazli fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Darslarda "Aqliy hujum", "Klaster", "Rolli o'yin", "BBB" va "Savol-javob" metodlaridan foydalanishning samaradorligi kuzatildi^[2].

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot jarayonida o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi o'rganildi va tahlil qilindi. Olib borilgan kuzatishlar hamda amaliy tajribalar natijasida xalq og'zaki ijodi elementlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini sezilarli dara-



jada oshirishi aniqlandi. Ayniqsa, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va tez aytishlardan foydalanilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning darsdagi faolligi yuqori bo'lgani kuzatildi.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni tushunish, mazmunini qayta hikoya qilish, voqealarga munosabat bildirish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelgani aniqlandi. Xalq og'zaki ijodi asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qildi. Jumladan, maqollar mazmunini izohlash jarayonida o'quvchilar fikrni aniq va mantiqiy ifodalashga harakat qildilar. Bu esa ularning nutq madaniyati va so'z boyligini oshirishda muhim omil bo'ldi.

Ertaklar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning obrazli fikrlashi, voqealarni tahlil qilish va qahramonlarga tavsif berish ko'nikmalari rivojlangani kuzatildi [3]. Ayniqsa, ertak qahramonlarini ijobiy va salbiy jihatdan taqqoslashga oid topshiriqlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirishda samarali natija berdi. Rollarga bo'lib o'qish usuli esa o'quvchilarning ifodali o'qish malakasini rivojlantirish bilan birga, ularning kommunikativ kompetensiyasini ham oshirdi.

Topishmoqlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini faollashtirdi. O'quvchilar topishmoq javobini izlash jarayonida tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni amalga oshirdilar. Bu esa o'qish savodxonligining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan funksional fikrlashni rivojlantirishga xizmat qildi. Tez aytishlardan foydalanish esa o'quvchilarning talaffuz madaniyati va ravon nutqini shakllantirishda samarali vosita bo'ldi [4].

Tadqiqot natijalari interfaol metodlardan foydalanish xalq og'zaki ijodi namunalariining ta'sirchanligini yanada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Rolli o'yin", "Savol-javob" va "BBB" metodlari asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar mustaqil va erkin fikr bildirishga faolroq jalb qilindi. Guruhli ishlash jarayonida esa o'quvchilarning hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllandi [5-7].

Shuningdek, tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodidan foydalanish o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, ezigulik, do'stlik, mehnatsevarlik va kattalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Ertak va maqollar mazmunida aks etgan tarbiyaviy g'oyalar o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatdiki, xalq og'zaki ijodiga asoslangan darslar an'anaviy darslarga nisbatan samaraliroq natija beradi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilarning darsdagi ishtiroki va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ldi. O'quvchilar matnni tezroq anglash, mazmunini tahlil qilish va o'z fikrini mustaqil bayon etishda faolroq qatnashdilar.

Tadqiqot yakunida o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalariidan tizimli va maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik vosita ekanligi isbotlandi. Mazkur metodik yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish o'quvchilarning nutqiy va tafakkur kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, maqollar, topishmoqlar, ertaklar va tez aytishlarning dars jarayoniga integratsiya qilinishi o'quvchilarning matn bilan ishlash faoliyatini yanada faollashtirdi. Mazkur holat xalq og'zaki ijodi namunalariining nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy imkoniyatlari ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari xalqona va obrazli ifodalangan matnlarni oddiy axborot xarakteridagi matnlarga nisbatan tezroq qabul qiladi. Buning asosiy sababi xalq og'zaki ijodi namunalariining sodda, qiziqarli va hayotiy mazmunga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois bunday materiallardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, xalq og'zaki ijodi asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda samarali natija beradi. Masalan, maqollar mazmunini sharhlash yoki ertak qahramonlarining xatti-harakatlariga baho berish orqali o'quvchilar voqealarga tanqidiy yondashishga o'rganadi. Bu esa o'qish savodxonligining muhim tarkibiy qismi bo'lgan tahliliy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida xalq og'zaki ijodi namunalariidan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgani kuzatildi. Ayniqsa, maqol va tez aytishlar ustida ishlash jarayonida o'quvchilar yangi so'z va iboralarni faol qo'llashga intildi. Bu holat ularning og'zaki va yozma nutqida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Demak, xalq og'zaki ijodi o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda samarali lingvodidaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Muhokama natijalari interfaol metodlarning xalq og'zaki ijodi bilan uyg'un holda qo'llanilishi ta'lim samaradorligini yanada oshirishini ko'rsatdi. Xususan, rolly o'yinlar asosida ertaklarni sahnalashtirish, guruhlarda



maqollar mazmunini tahlil qilish hamda topishmoqlar asosida mantiqiy musobaqalar tashkil etish o'quvchilarning faolligini oshirdi. Bunday metodik yondashuv dars jarayonida hamkorlik muhitini shakllantirib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Ayrim o'qituvchilarda xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi bo'yicha amaliy ko'nikmalar yetarli emasligi aniqlandi. Ba'zi hollarda xalq og'zaki ijodi namunalari faqat matn sifatida o'qilib, uning tarbiyaviy va metodik imkoniyatlari to'liq ochib berilmayotgani kuzatildi. Bu esa mazkur yo'nalishda metodik tavsiyalar va amaliy qo'llanmalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari ilgari olib borilgan ilmiy qarashlarni ham tasdiqlaydi. Jumladan, K.D. Ushinskiy xalq pedagogikasi bolalar tafakkurini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta'kidlagan bo'lsa, Abdulla Avloniy milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya yosh avlod kamolotida muhim o'rin tutishini qayd etgan. Tadqiqot davomida olingan natijalar ushbu ilmiy qarashlarning bugungi ta'lim jarayonida ham dolzarbligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'qish savodxonligi darslarining mazmuni va samaradorligini oshirishda muhim metodik imkoniyatlarga ega. Mazkur yondashuv o'quvchilarning matnni tushunish, mustaqil fikrlash, nutqiy faollik hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan tizimli va maqsadli foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy, mantiqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari xalq og'zaki ijodi elementlari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, matnni ongli tushunish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

Maqollar, topishmoqlar, ertaklar va tez aytishlardan foydalanish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirib, ravon va ifodali nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ertaklar asosida tashkil etilgan tahliliy va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning obrazli tafakkuri hamda voqealarni mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Topishmoqlar esa o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va tezkor xulosa chiqarish ko'nikmalarini faollashtiradi [7-8].

Tadqiqot davomida interfaol metodlardan foydalanish xalq og'zaki ijodi namunalarining metodik samaradorligini yanada oshirishi aniqlandi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Rolli o'yin", "Savol-javob" kabi metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytirib, ularni erkin va mustaqil fikr bildirishga undaydi [9-14]. Shu bilan birga, bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqot madaniyatining shakllanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning yana bir muhim jihati shundaki, u o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, insoniy fazilatlar va ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ertak va maqollarda aks etgan ezgulik, mehnatsevarlik, do'stlik va vatanparvarlik g'oyalari yosh avlod tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan xalq og'zaki ijodi nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy imkoniyatlarga ham ega ekanligi bilan ahamiyatlidir [15].

Shuningdek, tadqiqot natijalari o'qituvchilarning xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Darslarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqsadli, tizimli va zamonaviy metodlar asosida foydalanish o'qish savodxonligi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.


Umuman olganda, o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish hamda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur metodik yondashuvni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etish va uni yanada takomillashtirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matchonov S., G'afforova T., Sariev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi va uni o'qitish metodikasi. - Toshkent : Yangiyo'l poligraf servis, 2013. - 232 b.
2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi. - Toshkent : Fan va texnologiya, 2015. - 256 b.
3. Зокиров Д. Она тили ва о'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash yo'llari // Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире. - 2022. - Т. 1, № 2. - С. 288-291.
4. Зокиров Ж. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida mashqlarning xususiyatlari // Педагогическая акмеология. - 2022. - Т. 2, № 2.



5. Zokirov J. The importance of strengthening lessons in students' mother tongue and reading literacy // Academic Research in Modern Science. - 2022. - Vol. 1, No. 9. - P. 344-348.
6. O'g'li Z. J. G. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida klaster metodlaridan foydalanish // Science and Innovation. - 2023. - Vol. 2, Special Issue 4. - P. 76-79.
7. Zokirov J. Sifatli ta'lim berishda zamonaviy ona tili va o'qish savodxonligi darsligining roli // Interpretation and Researches. - 2023. - Vol. 2, No. 1.
8. Zokirov J. G. O. Zamonaviy ona tili va o'qish savodxonligi fanining yangilanishi, mazmuni va ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences. - 2023. - Vol. 5 (NUU Conference 3). - P. 90-96.
9. Z. Javohir G'aybullo o'g. The Importance of PIRLS Tasks in the Creative and Critical Thinking of Primary School Students // International Conference on Science, Engineering and Technology. - 2025. - Vol. 2, No. 4. - P. 20-24.
10. Z. Javohir G'aybullo o'g. Methodology of Vocabulary Work in Primary Grades // International Conference on Support of Modern Science and Innovation. - 2025. - Vol. 1, No. 3. - P. 92-96.
11. Z. Javohir G'aybullo o'g. The Importance of Effective Use of Exercise Types in Primary Education Mother Tongue Lessons // International Journal of Diversity and Multiculturalism. - 2025. - Vol. 2, No. 1. - P. 63-67.
12. Z. Javohir G'aybullo o'g. The Role of Grammar Exercises in Developing Spelling Skills of Primary School Pupils // International Journal of Diversity and Multiculturalism. - 2025. - Vol. 2, No. 2. - P. 82-87.
13. Z. Javohir G'aybullo o'g. The Importance of Visual Methods in Increasing Primary School Students' Interest in the Mother Tongue // Spanish Journal of Innovation and Integrity. - 2025. - No. 43. - P. 168-171.
14. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent : O'qituvchi, 2017. - 320 b.
15. Jo'rayev M., Eshonqulov E. O'zbek folklori. - Toshkent : Barkamol fayz media, 2016. - 240 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.